




2
0
2
4

№ 3



Muhandislik va Iqtisodiyot



ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



Muhandislik va Iqtisodiyot

Elektron nashr.
146 sahifa. Sentabr-oktabr, 2024-yil.

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

BOSH MUHARRIR:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari doktori, PhD

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, akademik

Sharipov Kongratbay Avazimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Eshov Mansur Po'latovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ixamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

M u a s s i s: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

H a m k o r l a r i m i z:

- Toshkent shahridagi G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
- Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
- Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
- Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
- Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
- Toshkent davlat transport universiteti
- Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
- Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
- Jizzax politexnika instituti

Muhandislik va Iqtisodiyot

EKSPERTLAR

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dots.nt

Elektron nashr.
146 sahifa. Sentabr-oktabr, 2024-yil.

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil
28-avgustdagi 360/5-son
qarori bilan "Dissertatsiyalar
asosiy ilmiy natijalarini chop
etishga tavsiya etilgan milliy
ilmiy nashrlar ro'yxati"ga
texnika va iqtisodiyot fanlari
bo'yicha "Muhandislik va
iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga
kiritilgan.



MUNDARIJA

Aksiyadorlik jamiyatlari investision faoliyatini rivojlantirishning muhim jihatlari.....	12
Abdurazakova Nargiza Rixsibaevna	
Buxgalteriya hisobida majburiyatlar va ularni tan olish mezonlari.....	19
Boltaev Abror Sayitmuradovich	
Banklararo raqobatning bank tizimi barqarorligiga ta'siri.....	25
Ortiqov Oybek Abdullaevich	
The improvement of funding business operations for the local enterprises in the Republic of Uzbekistan through issuing financial securities by means of the Tashkent Stock Exchange	34
Abduganiev Abdulaziz	
Shaxs ishbilarmonlik muloqotining subyekti sifatida.....	39
Turayeva Dinara Tulkunovna	
O'zbekiston Respublikasi mehnat bozorida kambag'allik darajasining aholi turmush farovonligiga ta'siri.....	44
Xayitov Sherbek Naimovich	
Tijorat banklari aktivlarini boshqarish va daromadligini oshirish masalalari	52
Masharipov Maxmud Bekturdievich	
Auditorlik tekshiruvining o'tkazishda dalil to'plash va natijalarni umumlashtirishda tahliliy amallarni qo'llanishi.....	59
Akromov Shohrux Shuhrat o'g'li	
Moliyaviy globalizatsiya sharoitida xorijiy mamlakatlar banklarida an'anaviy operatsiyalar amaliyoti va uni O'zbekiston bank tizimi faoliyatiga qo'llash yo'llari	70
Raxmatov Temur Sotiboldievich	
Innovatsion menejment yondashuvlari asosida sanoat korxonalari faoliyatini boshqarish va tashkil etish	79
Bakayeva Mohira Ahrorovna	
Tijorat banklarida investitsion risklarni boshqarishni takomillashtirish.....	85
Burxonov Asliddin Asqar o'g'li	
Elektron sigaretalar hamda qizdirilgan tamaki iste'moli ortishi va uni tartibga solishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	91
Mirzaliev Sanjar Maxamatjon o'g'li, Boykabilov Bahodir Mustafaeovich, Qoraboev Bobur Umarovich, Ugay Darya Sergeevna, Mirzalieva Surmaniso Alisher qizi	
Makroiqtisodiy siyosat va mehnat bozorining aloqadorligi.....	99
Hakimov Hakimjon Abdullo o'g'li	
Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida moliyaviy jarayonlarini axborot tizimlari orqali tashkil etishning amaliy jihatlari	105
Muslitdinov Nodir	
Transmission mexanizm foiz kanalining bozor foiz stavkalariga ta'siri	111
Absalamov Akram Tolliboyevich	
Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishda nomutanosibliklarni bartaraf etishning iqtisodiy samaradorligi.....	118
Madraximov Kaxramon Egamberganovich	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish jarayonidagi asosiy muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari	126
Nasurova Kamolaxon Ravshanovna	
Aksiyadorlik jamiyatlarida qimmatli qog'ozlar hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil etish	133
Rashidov Abror Ro'zimurod o'g'li	



Foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobot auditining xususiyatlari.....	138
Nazarova Kamola Sattorali qizi	

FOYDA YOKI ZARAR VA BOSHQA UMUMLASHGAN DAROMAD TO'G'RISIDAGI HISOBOT AUDITINING XUSUSIYATLARI

Nazarova Kamola Sattorali qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobot auditining metodologik jihatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda ushbu hisobotning xalqaro va milliy standartlar asosida tuzilishi, audit jarayonlarida qo'llaniladigan yondashuvlar, moliyaviy ko'rsatkichlarning tahlili va auditorlik amallarining tarkibi yoritilgan. Metod sifatida adabiyotlar tahlili, qiyosiy tahlil va amaliy kuzatuv usullari qo'llanilgan. Tadqiqot natijalari xalqaro audit standartlarini amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini ko'rsatdi hamda auditorlik xulosalarining aniqligini oshirishga xizmat qiladi. Muhokamalar hisobot shakllarini takomillashtirish va auditorlik amallarining samaradorligini oshirish bo'yicha xulosalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: moliyaviy hisobot, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, milliy buxgalteriya standartlari, auditorlik standartlari, foyda yoki zarar hisobotlari, audit ko'rsatkichlari, auditorlik xulosasi, moliyaviy tahlil.

Abstract: This article examines the methodological aspects of auditing the statement of profit or loss and other comprehensive income. The study analyzes the structure of the report under international and national standards, the audit procedures applied, and the evaluation of key financial indicators. The methodology includes literature review, comparative analysis, and observational methods. The findings highlight the potential of applying international audit standards and improving the accuracy of audit opinions. The discussion section presents conclusions on enhancing financial reporting formats and increasing the efficiency of audit procedures.

Keywords: financial reporting, International Financial Reporting Standards (IFRS), national accounting standards, audit standards, profit or loss statement, audit indicators, audit opinion, financial analysis.

Аннотация: Статья посвящена методологическим аспектам аудита отчета о прибылях и убытках и прочем совокупном доходе. В исследовании рассматриваются подходы к составлению отчета в соответствии с международными и национальными стандартами, методы анализа финансовых показателей и процедуры аудита. Используются методы анализа литературы, сравнительный анализ и практическое наблюдение. Результаты демонстрируют потенциал применения международных стандартов аудита и повышения точности аудиторских заключений. В разделе обсуждения представлены предложения по совершенствованию форм отчетности и эффективности аудиторских процедур.

Ключевые слова: финансовая отчетность, международные стандарты финансовой отчетности, национальные стандарты бухгалтерского учета, стандарты аудита, отчет о прибылях и убытках, аудиторские показатели, аудиторское заключение, финансовый анализ.

KIRISH

Bugungi kunda jahon auditorlik amaliyotida moliyaviy hisobot auditini o'tkazish auditorlik xizmatlarining eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Amaldagi 50 dan ortiq xalqaro auditorlik standartlarining asosiy mazmuni aynan moliyaviy hisobot auditiga bag'ishlangan bo'lib, bu audit



jarayonining dolzarbligini ko'rsatadi. Buning asosiy sababi – auditorlarning korxona faoliyatidagi firibgarlik, moliyaviy xatoliklar va qonun buzilishi holatlarining hisobotlarga ta'sirini aniqlash, moliyaviy hisobotlarda buzib ko'rsatish hollarini baholash, shuningdek, biznes xatarlarini tahlil qilishda ishtirok etish, qonuniyligni ta'minlashga ko'maklashish va investorlarga ishonchli axborot taqdim etish kabi mas'uliyatli vazifalarni bajarishidir.

Xususan, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida tayyorlangan hisobot shakllarining, jumladan, "Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot", "Foyda va zararlar hamda boshqa umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobot", "Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot", "Kapital o'zgarishi to'g'risidagi hisobot" hamda "Moliyaviy hisobotga izohlar" ilovalaridagi ko'rsatkichlarning ishonchligini tekshirish va ularning xalqaro standartlar talablariga muvofiqligini baholash auditorlik jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi.

Ayni paytda, ushbu hisobot shakllarining kompleks auditini o'rganishga doir ilmiy-tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmaganligi, auditning metodologik asoslari va amaliy mexanizmlarini chuqur tahlil qilishni talab qilmoqda. Shu bois, ushbu maqolada foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobot auditining ilmiy-nazariy va uslubiy asoslarini chuqur tahlil qilish dolzarb masala sifatida ko'riladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kunda xalqaro standartlar asosida tayyorlangan moliyaviy hisobot shakllari auditini tashkil etishning amaliy va uslubiy jihatlarini takomillashtirish, audit jarayonlarida ilg'or xorijiy tajriba va dasturiy vositalardan foydalanish, xalqaro standartlar asosida tekshiruv natijalarini hujjatlashtirish, umumlashtirish va baholash kabi masalalar tizimli va yaxlit tarzda hali to'liq o'rganilmagan. Xususan, foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobot auditini rejalashtirish hamda o'tkazishni takomillashtirish bo'yicha chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borish zarurati mavjud.

Amalga oshirilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, xalqaro standartlar asosida tayyorlangan moliyaviy hisobot shakllari auditini tashkil etish va uni samarali amalga oshirish masalasi asosan xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar doirasida o'rganilgan. Jumladan, A. Arens, Dj. Lobbek, R. Adams, R. Dodj, D.R. Karmaykl va M. Benislar tomonidan moliyaviy hisobot auditini xalqaro standartlarga muvofiq tashkil etishning nazariy va uslubiy asoslarini ishlab chiqish bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilgan [1].

Mazkur mavzuning ayrim jihatlarini MDH davlatlari iqtisodchi olimlari – N.P. Baryshnikov, N.T. Beluxa, S.M. Bychkova, P.I. Kamyshevanov, J.A. Kevorkova, V.P. Suys va A.D. Sheremetlar tomonidan ham o'rganilgan [2].

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan esa bu yo'nalishda yaratilgan darsliklar, monografiyalar, o'quv qo'llanmalar, ilmiy maqola va tezislarda asosan nazariy yondashuvlar yoritilgan. Masalan, R.D. Dismuratov, A.X. Sattorov, I.I. Meliev va N.Sh. Xajimuratovlarning ishlarida xalqaro standartlarga muvofiq tayyorlangan moliyaviy hisobot auditini rejalashtirish va o'tkazishning ayrim jihatlarini tahlil qilingan [3].

Iqtisodchi olimi Ye.N. Varlamovning fikriga ko'ra, moliyaviy hisobot bo'yicha auditorlik tekshiruvlari uchta asosiy bosqichda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq: tayyorgarlik bosqichi, bevosita auditorlik tekshiruvini o'tkazish bosqichi va yakuniy xulosa chiqarish bosqichi [4].

Ta'kidlash joizki, yuqorida nomi tilga olingan iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida aynan xalqaro standartlar asosida tayyorlangan moliyaviy hisobot shakllari, xususan, foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobot auditining uslubiy jihatlarini kompleks va tizimli ravishda o'rganilmagan. Shuningdek, mavjud normativ-huquqiy hujjatlar va o'quv adabiyotlarida ushbu audit turini amalga oshirish bo'yicha chuqur va amaliy yondashuvlarga ega ilmiy izlanishlar yetarli emasligi, bu yo'nalishda izchil tadqiqotlar olib borish dolzarb vazifa ekanligini ko'rsatmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu ilmiy maqolada nazariy va amaliy yondashuv asosida tadqiqot olib borilgan bo'lib, unda tizimli tahlil, guruhlash, taqqoslash, kuzatuv, statistik hamda omilli tahlil usullaridan samarali

foydalanilgan. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida auditorlik tashkilotlari faoliyatida auditorlik tekshiruv natijalarini umumlashtirish va baholash tartibi, audit natijalarini hujjatlashtirishning mazmun-mohiyati ochib berilgan. Shuningdek, auditni hujjatlashtirish tartibini takomillashtirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Fikrimizcha, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (keyingi o'rinlarda – MHXS) va auditning xalqaro standartlari (keyingi o'rinlarda – AXS) me'yorlariga muvofiq moliyaviy hisobotlarni shakllantirish hamda ularning auditini amalga oshirish xo'jalik yurituvchi subyektlar va auditorlik tashkilotlari faoliyati uchun quyidagi asosiy imkoniyatlarni ta'minlaydi (1-jadval):

1-jadval. MHXS va AXSlarni qo'llash imkoniyatlari¹

№	MHXS va AXS qo'llanilishi natijasida erishiladigan imkoniyatlar
1	Faoliyat natijalarining ochiq(shaffof)ligi darajasini yanada oshirish imkoniyati
2	Moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarni unda aks ettirilgan axborotlarni davriy oraliqlar hamda turli korxonalar bo'yicha ko'rsatkichlarga ajratgan holda tahlil qilish
3	Investorlar, aksiyadorlar va kreditorlarning korxona moliyaviy faoliyatiga ishonchi ortib, korxonaga sarmoya kiritish hamda kredit ajratish kabi imkoniyatlar darajasining kengayishi
4	Xalqaro talablarga muvofiq keluvchi axborotdan foydalanilishi natijasida korxonada xorijiy investorlar bilan hamkorlik imkoniyatlari kengayib, ular faoliyatiga chetdan investitsiyalar oqimini kuchayishi
5	Xalqaro me'yorlarga muvofiq keluvchi moliyaviy axborotlarni shakllantirilganligi tufayli korxonaning xalqaro munosabatlar, turli birjalar va xalqaro kapital bozori ishtirokchisiga aylanishi
6	Korxona ta'sischi va boshqaruv rahbariyatini samarali qarorlari uchun ishonchli, ob'ektiv va tizimli moliyaviy axborotlar bilan ta'minlash imkonini yuzaga keltiradi
7	Korxona faoliyatini moliyaviy jihatdan rejalashtirish va uning kelgusi faoliyati rivojlanishini oldindan baholash uchun zarur axborotlar bilan ta'minlash imkoniyati
8	Korxona boshqaruv tartibini takomillashtirish, uning mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) sifatini oshirish va eksport salohiyatini yuksaltirish orqali uning bozorda raqobatbardoshligini yanada oshirish
9	Korxona faoliyatida korrupsiya, suiste'mol, mulk va mablag'larni talon-taroj qilish yoki o'z manfaati yo'lida foydalanish, daromad(foyda)ni yashirish va bankrotlik holatlarini kamaytirish
10	Ishonchli axborotlardan foydalanilishi va boshqaruv qarorlarini qabul qilinishi natijasida rag'batlantirish va faoliyatdan manfaatdorlik darajasini oshirish
11	Korxona boshqaruvida ishonchli va kafolatli axborotlardan foydalanilishi natijasida samarali nazorat tizimi shakllanib, korxona ishchi va xizmatchilarida korxona faoliyatiga nisbatan munosabatni ijobiy tomonga o'zgarishi
12	Korxona ishchi va xizmatchilarida o'z kasbiy malakasini oshirishga nisbatan ijobiy munosabat va qiziqish kuchayishi va boshqalar

1 Muallif tomonidan tayyorlangan



Yuqoridagi 1-jadval ma'lumotlari asosida xulosa qilish mumkinki, hisob va audit tizimida xalqaro standartlardan foydalanish auditorlardan moliyaviy hisobotni xalqaro me'yorlarga muvofiq shakllantirish hamda ushbu hisobotlar bo'yicha auditorlik tekshiruvini to'laqonli amalga oshirish ko'nikmalarini egallashni talab qiladi. Ayniqsa, MHXS (Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari) asosida hisobot tuzish va uning auditini olib borish, auditorlar zimmasiga ikki asosiy – transformatsiya va tekshiruv xizmatini bir vaqtda bajarish majburiyatini yuklaydi.

Bunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-son² qarori alohida ahamiyatga ega bo'lib, ushbu hujjatda auditorlik faoliyatini isloh qilish, shuningdek, xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobotlar tayyorlash bo'yicha zamonaviy yondashuvlarni amaliyotga joriy etish zarurati belgilab berilgan. Qarorning qabul qilinishi auditorlar zimmasiga bir vaqtning o'zida ikki funksiyani – auditorlik tekshiruvini o'tkazish va milliy hisobotni MHXS talablari asosida transformatsiya qilish xizmatlarini samarali bajarish ehtiyojini yuzaga keltirmoqda. Bu esa, o'z navbatida, auditorlardan xalqaro standartlar bo'yicha chuqur bilim, metodik tayyorgarlik hamda amaliy ko'nikmalarni talab qiladi.

Foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobotni auditdan o'tkazishning asosiy maqsadi – hisobotda keltirilgan moliyaviy ko'rsatkichlarning birlamchi buxgalteriya hujjatlariga muvofiqligini baholash, shuningdek, ushbu hisobotning buxgalteriya hisobining amaldagi qonun hujjatlariga mos ravishda shakllantirilganligini aniqlashdan iborat.

Amaldagi normativ hujjatlar asosida, xususan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 8-oktabrdagi 181-sonli buyrug'iga muvofiq, ushbu hisobot belgilangan shakl va mazmunda tayyorlangan bo'lishi va moliyaviy yil yakunidan keyingi yilning 1-mayidan kechiktirmasdan taqdim etilishi kerak. Auditorlik tekshiruvlarida aynan ushbu holatga alohida e'tibor qaratiladi.

Mazkur audit jarayonida auditor hisobotda keltirilgan quyidagi ko'rsatkichlar va satrlar bo'yicha tahlil o'tkazadi:

- 0100-satr: asosiy foyda va zarar ko'rsatkichlari – tushum, sotilgan mahsulot tannarxi;
- 0101–0102-satrlar: yalpi foyda (zarar) ko'rsatkichlari – boshqa daromadlar, xarajatlar, aktivlar qadrsizlanishi;
- 0300–0350-satrlar: foyda solig'igacha bo'lgan ko'rsatkichlar – qo'shma korxonalar ulushi, foiz xarajatlari, valyuta farqlari va moliyaviy faoliyatga oid harajatlar;
- 0420–0430-satrlar: foyda solig'i – joriy va kechiktirilgan soliq;
- 0510-satr: tugatilgan faoliyatdan foyda (zarar);
- 0710–0730-satrlar: boshqa umumlashgan daromadlar – asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning qayta baholanishi, investitsiyalar ulushi, reklassifikatsiya qilinmaydigan foydalar;
- 0810–0850-satrlar: keyingi davrda foydaga reklassifikatsiya qilinishi mumkin bo'lgan ko'rsatkichlar – kurs farqlari, xejlashlar, haqiqiy qiymatdagi moliyaviy aktivlar;
- 1000–1010-satrlar: jami boshqa umumlashgan daromad va jami umumiy daromad.

Bu ko'rsatkichlarning haqiqiy birlamchi hujjatlarga muvofiqligi va buxgalteriya hisobida to'g'ri aks ettirilganligi auditor tomonidan chuqur tahlil qilinadi.

Shuningdek, auditor "Foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobot" (MHXS asosida) va "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot" (BHMS – Buxgalteriya hisobi milliy standartlari asosida) moddalarini o'rtasidagi farqli va o'zaro bog'liq jihatlarni aniqlash hamda ularni hujjatlashtirish bo'yicha aniqlik kiritishga alohida e'tibor qaratishi lozim. Ushbu jihatlarning auditorlik xulosasining aniqligi va ishonchligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-son qarori: <https://lex.uz/docs/-4746047>

2-jadval. MHXS asosida tuziladigan “foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to’g’risidagi hisobot” va BHMS asosida tuziladigan “moliyaviy natijalar to’g’risidagi hisobot” moddalarining qiyosiy tahlili³.

Foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to’g’risidagi hisobot	Moliyaviy natijalar to’g’risidagi hisobot
Tushum	Mahsulot sotishdan sof tushum
Moliyalashtirish bo’yicha xarajatlar	Sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat) larning tannarxi, sotish xarajatlari, ma’muriy xarajatlar, boshqa operatsion xarajatlar, kelgusida soliqqa tortiladigan bazadan chiqariladigan hisobot davri xarajatlari
	Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari
	Asosiy faoliyatning foydasi (zarari)
Soliq bo’yicha xarajatlar	Foyda solig’i
	Foydadan boshqa soliqlar va yig’imlar
-	Soliq to’langanga qadar foyda
Sotish xarajatlari, aktivlarning chiqib ketishi yoki joriy qiymat bo’yicha baholash natijasida to’xtatilgan faoliyat bo’yicha soliq to’langandan keyin qoladigan foyda yoki zarar	
Foyda yoki zarar	Hisobot davrining sof foydasi (zarari)
Yalpi daromadning har bir komponenti	
Ulushli qatnashish hisobi usuli bo’yicha boshqa yalpi daromadda uyushgan yoki hamkor tashkilotlarning ulushi	
Jami yalpi daromad	
Nazorat qilinmaydigan ulushli qatnashish va bosh kompaniya ta’sischilariga taalluqli foyda yoki zarar va jami yalpi daromad	

Yuqoridagi 2-jadval ma’lumotlaridan ko’rinadiki, MHXS va BHMS asosida tuzilgan “Yalpi daromad to’g’risidagi hisobot” hamda “Moliyaviy natijalar to’g’risidagi hisobot” moddalari o’rtasida sezilarli farqlar mavjud. Bu esa, ayniqsa, audit jarayonida mazkur ikki hisobot strukturasi va tarkibiy qismlarining uyg’un emasligini aniqlashni zarur qiladi. Jumladan, “Ulushli qatnashish hisobi usuli bo’yicha boshqa yalpi daromadda uyushgan yoki hamkor tashkilotlarning ulushi”, shuningdek, “Nazorat qilinmaydigan ulushli qatnashish va bosh kompaniya ta’sischilariga taalluqli foyda yoki zarar hamda jami yalpi daromad” moddalari milliy standartlarda mavjud emas. Bu holat korxonalarning konsolidatsiyalangan emas, balki yakka tartibda tuzilgan hisobotlarni shakllantirishiga sabab bo’lmoqda.

Bundan tashqari, xalqaro standartlarda mavjud bo’lgan “Sotish xarajatlari, aktivlarning chiqib ketishi yoki joriy qiymat bo’yicha baholash natijasida to’xtatilgan faoliyat bo’yicha soliqdan keyingi foyda yoki zarar” kabi modda ham BHMSda ko’zda tutilmagan. Bu esa, milliy amaliyotda IFRS 5 – “Sotish uchun mo’ljallangan uzoq muddatli aktivlar va to’xtatilgan faoliyat” standartiga muqobil bo’lgan normativ-huquqiy asos mavjud emasligini anglatadi.

Audit jarayonida auditorlar foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to’g’risidagi hisobotda daromad yoki xarajatlarning noodatiy modda sifatida aks ettirilgan-ettirilmaganligini aniqlashi lozim. Ushbu hisobotda faoliyat natijalarini o’lchash bilan bog’liq elementlar – daromadlar, xarajatlar, foyda va zararlar – aniq belgilangan bo’lishi va ularning har biri hisobot shaklida izchil ko’rsatilgan bo’lishi zarur. Xususan, xarajatlar daromadga mos kelish tamoyili asosida tan olinishi kerak.

3 A.Авлоқулов. Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларида молиявий натижалар кўрсаткичларини акс эттириш хусусиятлари. “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий электрон журнали. №2, апрель, 2017 йил. <https://interfinance.tsue.uz>



Foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobotni auditdan o'tkazishda quyidagi jihatlar muhim ahamiyatga ega:

- hisobot "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun va MHXSga muvofiq tayyorlanganligini, rahbariyat tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda imzolanganligini va e'lon qilinganligini aniqlash;

- yillik moliyaviy hisobot hisobot yilining 1-yanvardan 31-dekabrigacha bo'lgan kalendar yilini qamrab olganligini tekshirish;

- agar hisobot yili davomida korxona tugatilgan yoki qayta tashkil etilgan bo'lsa, hisobot yil boshidan tugatilishgacha bo'lgan davr uchun hisobot taqdim etilganligini tasdiqlash;

- o'tgan yillardagi xatolar bo'yicha tuzatishlar kiritilgan bo'lsa, ular hisobotda taqsimlanmagan foyda saldosi, aktivlar, majburiyatlar yoki xususiy kapital moddalari orqali aks ettirilganligiga ishonch hosil qilish;

- moliyaviy hisobot shakllarining rahbar yoki bosh buxgalter tomonidan tasdiqlangan bo'lishi.

Muddatidan kechiktirilgan soliq aktivlari 2018-yilda 1 228 582 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilga kelib bu ko'rsatkich 6 587 279 ming so'mga yetgan. Bu o'zgarishlar soliq aktivlarining 5 358 697 ming so'mga oshganligini anglatadi. Kapitalning boshqa elementlari esa 2018-yilda 25 714 969 ming so'mni tashkil etgan bo'lib, 2022-yilda bu ko'rsatkich 127 568 637 ming so'mga yetgan. Demak, to'rt yilda kapital ko'rsatkichi 101 853 668 ming so'mga oshgan.

Bu raqamlar korxonada soliq aktivlari mavjud bo'lgan holda, soliq majburiyatlarining uzaytirilmaganligini, ya'ni ularning balansda qarama-qarshi holatda kuzatilmaganligini ko'rsatadi. Ushbu tafsilotlar auditorlik xulosasi shakllanishida asosiy tahlil obyekti bo'lib xizmat qiladi(3-jadval).

3-jadval. «ABS» AJning moliyaviy holat to'g'risidagi hisoboti (ming so'm)⁴.

Ko'rsatkichlar	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2022-yil 2018-yilga nisbatan o'zgarishi
Aktivlar						
Uzoq muddatli aktivlar						
Asosiy vositalar	18 244 036	29 857 909	63 253 198	42 182 484	32 694 824	14 450 788
Muddati kechiktirilgan soliq aktivlari	1 228 582	1 913 365	3 558 026	5 041 638	6 587 279	5 358 697
Boshqa uzoq muddatli aktivlar	330 246 811	409 740 137	398 092 768	492 183 241	656 584 290	326 337 479
Jami uzoq muddatli aktivlar	349 719 429	441 511 411	464 903 992	539 407 363	695 866 393	346 146 964
Joriy aktivlar						
Pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari	10 591 699	7 442 266	8 369 996	80 008 443	60 013 380	49 421 681
Debitorlik qarzlari	29 325 220	12 811 311	32 350 033	63 665 096	76 040 237	46 715 017
Boshqa joriy aktivlar	12 000 426	22 491 422	4 922 622	13 041 282	-	(12 000 426)
Jami joriy aktivlar	51 917 345	42 744 999	45 642 651	156 714 821	136 053 617	84 136 272
Jami aktivlar	401 636 774	484 256 410	510 546 643	696 122 184	831 920 010	430 283 236
Kapital va majburiyatlar						
Kapital						
Aksiyadorlik kapitali	9 113 589	9 113 589	9 113 589	9 113 589	17 259 944	8 146 355

4 Муаллиф томонидан тайёрланган

Ko'rsatkichlar	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2022-yil 2018-yilga nisbatan o'zgarishi
Taqsimlanmagan foyda	63 070 294	77 302 421	78 825 325	88 245 296	105 933 405	42 863 111
Kapitalning boshqa elementlari	25 714 969	25 714 969	25 714 969	25 714 969	127 568 637	101 853 668
Jami kapital	97 898 852	112 130 979	113 653 883	123 673 854	250 761 986	152 863 134
Majburiyatlar						
Uzoq muddatli majburiyatlar						
Uzoq muddatli qarzlari	283 522 718	344 306 998	371 700 201	542 428 855	552 098 943	268 576 225
Muddati uzaytirilgan soliq majburiyatlari						
Boshqa uzoq muddatli majburiyatlar	2 555 938	5 615 455	-	-		(2 555 938)
Jami uzoq muddatli majburiyatlar	286 078 656	349 922 453	371 700 201	542 428 855	552 098 943	266 020 287

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytganda, MHXSga muvofiq tayyorlangan moliyaviy hisobotga berilgan auditorlik xulosasidan foydalanish orqali audit buyurtmachisining ijroiya organi faoliyatini baholash, xorijiy investorlar tomonidan korxonaning moliyaviy holatini tahlil qilish hamda korxona faoliyatiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlari yuzaga keladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobot auditini rejalashtirish va o'tkazishni takomillashtirish bo'yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

Moliyaviy hisobot auditi bosqichlariga oid har bir vazifani samarali amalga oshirish uchun, ularning xususiyatlaridan kelib chiqib, eng avvalo auditorlik amallarini bajarish, tekshiruv natijalarini umumlashtirish va baholashning ilmiy, uslubiy hamda me'yoriy jihatdan asoslangan uslubiyatini ishlab chiqish zarur. Jumladan, auditorlik tashkilotlari audit jarayonida 300-sonli "Auditni rejalashtirish" nomli standart va boshqa xalqaro standartlar talablariga qat'iy rioya etishlari lozim. Audit tekshiruvlarini yuqoridagi normativ hujjatlar asosida o'tkazish, ayniqsa tekshiruvlarda nafaqat IT texnologiyalari vositalaridan, balki ilg'or avtomatlashtirilgan audit dasturlari, moliyaviy tahlil tizimlari, elektron raqamli imzo xizmatlaridan foydalanish, shuningdek ko'rsatilgan auditorlik xizmatlari sifatini tasdiqlovchi alohida auditorni tayinlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Fikrimizcha, moliyaviy hisobot auditini samarali tashkil etishning eng oqilona yo'li – bu har bir auditorlik tashkiloti tomonidan mazkur jarayonga oid ichki auditorlik standartlarini ishlab chiqish va ularni amaliy audit jarayonlarida tatbiq etishdan iborat. Auditorlik ishchi hujjatlarini shakllantirishda ichki standartlardan foydalanish quyidagi afzalliklarni ta'minlaydi: audit jarayonlarini oldindan belgilangan namunaviy shakl, mazmun va hajmdagi hujjatlarda aks ettirish; hujjatlashtirishda grammatik va texnik xatolarni kamaytirish; audit amallarini tizimli va o'zaro bog'liq tarzda hujjatlashtirish; hamda auditorlik xulosasini dalillar yoki birlamchi hujjatlar asosida asosli shakllantirish imkonini yaratadi.

Shuningdek, MHXS va BHMS asosida tuzilgan "Yalpi daromad to'g'risidagi hisobot" hamda "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot" moddalarini o'rtasida muayyan tafovutlar mavjud. Xususan, "Ulushli qatnashish hisobi usuli bo'yicha boshqa yalpi daromadda uyushgan yoki hamkor tashkilotlarning ulushi" va "Nazorat qilinmaydigan ulushli qatnashish hamda bosh kompaniya ta'sislariga taalluqli foyda yoki zarar va jami yalpi daromad" moddalarini milliy amaliyotda mavjud



emas. Bu esa korxonalar tomonidan konsolidatsiyalangan emas, balki faqat oddiy hisobot shakllari tayyorlanayotganiga e'tibor qaratishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Аренс А., Лоббек Дж. Аудит. Пер. с англ. под ред. Я.В. Соколова. – М.: Финансы и статистика, 2013. – 560 с.; Адамс Р. Основы аудита. Пер. с англ. / под ред. Я.В. Соколова. – М.: ЮНИТИ, 2015. – 398 с.; Додж Р. Краткое руководство по стандартам и нормам аудита. Пер. с англ.: предисловие; Кармайкл Д.Р., Бенис М. Стандарты и нормы аудита. Пер. с англ. – М.: Аудит, ЮНИТИ, 1995. – 527 с.
2. Барышников Н.П. Организация и методика проведения общего аудита. 4-е изд., перераб. и доп. – М.: Филин, 1998. – 528 с.; Белуха Н.Т. Аудит. Учебник. – Знание, КОО, 2000. – 769 с.; Бычкова С.М. Аудиторская деятельность. Теория и практика. – СПб.: Лань, 2000. – 320 с.; С.А. Стукова. – М.: Финансы и статистика, ЮНИТИ, 1992. – 240 с.; Камышанов П.И. Практическое пособие по аудиту. – М.: ИНФРА-М, 1996. – 522 с.; Кеворкова Ж.А. Международные стандарты аудита. – М.: Юрайт, 2014. – 458 с.; Суйц В.П., Шеремет А.Д. Аудит. Учебник. – М.: ИНФРА-М, 2009. – 456 с.
3. Dusmuratov R.D. Auditorlik faoliyati: nazariya, uslubiyot va amaliyot. Monografiya. – T.: Moliya nashriyoti, 2007. – 276 b.; Sattorov A.X. Auditorlik tekshiruvlarini tashkil etish metodologiyasini takomillashtirish. I.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2024. – 72 b.; Meliev I.I. Auditorlik faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish metodologiyasini takomillashtirish. I.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2024. – 78 b.; Xajimuratov N.Sh. Moliyaviy hisobot auditi: nazariya, metodologiya va amaliyot. Monografiya. – Toshkent: Impress media, 2021. – 236 b.
4. Варламова Е.Н. Этапы проведения аудиторской проверки: особенности аудита организаций оптовой торговли. // Международный бухгалтерский учет, № 4 (202), 2012. – 56-бет.

Muhandislik va Iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2024. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**

